



**EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA
DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.028>

Ismoilova Gulbaxor Azamovna

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ismoilovag352@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tahlil etiladi. Ta‘lim jarayonida ekologik bilim, ekologik ong, ekologik mas‘uliyat va qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim mazmuni, o‘qitish metodlari hamda tarbiyaviy faoliyatning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ekologik ta‘lim va tarbiyaning uzviyligi, talabalarning ekologik faoliyatga ongli munosabatini shakllantirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta‘lim jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta‘lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik mas‘uliyat, pedagogik muammo, talaba shaxsi, barqaror rivojlanish, ta‘lim jarayoni.

Аннотация. В данной статье проблема формирования и развития экологической культуры у студентов анализируется как педагогическая проблема. Освещаются теоретические основы развития экологических знаний, экологического сознания, экологической ответственности и ценностей в образовательном процессе. Также раскрывается значение педагогических условий, содержания обучения, методов преподавания и воспитательной деятельности, направленных на формирование экологической культуры в высших образовательных учреждениях. В статье обосновывается взаимосвязь экологического образования и воспитания, а также необходимость формирования у студентов осознанного отношения к экологической деятельности. Результаты исследования способствуют совершенствованию эффективных педагогических подходов, ориентированных на развитие экологической культуры в образовательном процессе.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, экологическое воспитание, экологическое сознание, экологическая ответственность, педагогическая проблема, личность студента, устойчивое развитие, образовательный процесс.

Abstract. this article analyzes the issue of forming and developing environmental culture among students as a pedagogical problem. The theoretical foundations for the development of environmental knowledge, environmental awareness, environmental responsibility, and values within the educational process are examined. In addition, the significance of pedagogical conditions, curriculum content, teaching methods, and educational activities aimed at fostering environmental culture in higher education institutions is highlighted. The article substantiates the interconnection between environmental education and upbringing, as well as the necessity of shaping students’ conscious attitudes toward environmental activities. The research findings contribute to the improvement of effective pedagogical approaches focused on developing environmental culture in the educational process.

Keywords: environmental culture, environmental education, environmental upbringing, environmental awareness, environmental responsibility, pedagogical problem, student personality, sustainable development, educational process.

Kirish. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy ekologik madaniyat ming yillikni rivojlantirishning maqsadli mazmuni va global aspektlarini aks ettiruvchi vazifalar bilan o‘zaro munosabatdadir. Ekologik madaniyatni rivojlantirish pedagogika fani va amaliyoti oldiga bir qator o‘ta muhim vazifalarni qo‘yadi. Ekologik madaniyat O‘zbekistonda ham butun dunyoda bo‘lganidek, inson va tabiat bir butunligiga erishishning asosiy usullaridan biri bo‘lib, jamiyatimiz o‘zini-o‘zi saqlashini innovatsion usuli sifatida e’tirof etilishi kerak. Ushbu g‘oya O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqida ham o‘z tasdig‘ini topgan: “Ming yillik Deklaratsiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga yetishishda, ayniqsa, zamonaviy anomal tabiat o‘zgarishlari sodir bo‘layotgan sharoitlarda, ekologiyani himoya qilish va atrof-muhitni asrash juda muhim ahamiyat kasb etadi”¹¹.

Metodologiya (Methods): tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, pedagogik, psixologik va ekologik adabiyotlarni tahlil qilish orqali ekologik madaniyat tushunchasining mazmuni va tuzilmasi aniqlashtirildi. Taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida ekologik ta’lim va tarbiya jarayonidagi mavjud yondashuvlar o‘rganildi.

¹¹ Каримов И.А. Демакротик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини шакллантириш - мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезони дир. - Тошкент: «Ўзбекистан», 2011. -Т. 19. - 15 бет

Shuningdek, kuzatish, suhbat va so‘rovnoma metodlari orqali talabalarning ekologik bilim darajasi, ekologik ong va munosabatlari tahlil qilindi. Olingan ma‘lumotlar pedagogik tahlil asosida qayta ishlanib, ekologik madaniyatni shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar aniqlandi.

Natijalar (Results): tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda ekologik madaniyatning shakllanish darajasi asosan ta‘lim mazmuni, o‘qitish metodlari va tarbiyaviy faoliyatning tashkil etilishiga bog‘liq. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar ekologik muammolar haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lsalar-da, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan.

Aniqlanishicha, ekologik madaniyatni shakllantirishda fanlararo integratsiya, interfaol metodlar, loyihaviy faoliyat va ekologik tadbirlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Talabalarni ekologik faoliyatga jalb etish ularning tabiatga nisbatan mas‘uliyatli munosabatini kuchaytirib, ekologik qadriyatlarning shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Muhokama (Discussion). “Madaniyat” so‘zi hozirda juda keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tushuncha lotincha “cultural” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tarbiyalash, o‘stirish, rivojlanish, e‘zozlash degan ma‘noni anglatadi. Bundan tashqari, madaniyat tarixiy nuqtai nazardan inson va jamiyatni rivojlanishining ma‘lum bosqichi hisoblanadi. Unda inson hayoti va faoliyatining turlari va shakllari aks etadi, u tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlar inobatga olinadi.

Shaxs madaniyatini aniqlashda tashqi va ichki darajalarni belgilab borish lozim. Shaxsning tashqi madaniyati albatta uning kundalik xatti-harakatida namoyon bo‘ladi va atrofdagilar bilan muloqotga kirishish uslubini aks ettiradi. Tashqi madaniyat, qanchalik muhim bo‘lmasin, yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin, u albatta ichki madaniyat bilan to‘ldirib borilishi shart.

Madaniyat yaxlit holat bo‘lib, uning tuzilmasi ulkan xilma-xillik asosida tizimlashtiriladi, deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Uning tarkibiga ikkita komponent kiradi:

- ma‘naviy-axloqiy madaniyat;
- moddiy madaniyat.

Shu munosabat bilan ta‘kidlab o‘tish joizki, madaniyat doim tarixan o‘zgaruvchan shakllarda bo‘lgan va o‘ziga xos xilma-xillikni va takrorlanmaslikni namoyon qilgan. Muayyan tarixiy bosqichda jamiyatda qadriyatlar ustun bo‘lganiga qarab, insonning ma‘naviy va moddiy atrof-muhitga munosabati shakllanib borgan.

Ko‘rib turganimizdek, inson to‘liq namoyon bo‘ladigan va shakllanadigan muhit anchagina murakkab va bir tekis emas, bu esa inson oldiga doimo turli talablarni qo‘yadi. Insonni bu muhitga, uning ekologiyasiga munosib bo‘la olmasligi o‘zi va atrofdagilar uchun zararli bo‘lishi mumkin. Biroq “inson ekologiyasi” o‘zida nimani namoyon qiladi? Bu savolga

javobni B.B.Proxorovning ilmiy tadqiqot ishidan topishimiz mumkin. Uning yozishicha, inson ekologiyasi - bu muayyan mintaqa aholisiga tabiat, ijtimoiy, maishiy, ishlab chiqarish omillarini ta'sir qilish qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Bunday qonuniyatlar qatoriga madaniyat, an'ana, din ham kiradi. Inson ekologiyasi yangi fanlararo aloqador yo'nalish bo'lib, B.Ziyomuxammedov inson ekologiyasini insonlarning atrof-muhit omillari bilan o'zaro aloqasini, aholining rivojlanishini, sog'lig'ini saqlashi va yaxshilashi, insonning jismoniy va psixologik imkoniyatlarini shakllantirishi, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganadi, deb ta'kidlaydi. "Yer sharida yashovchi har bir inson qaysidir yo'l bilan yer kurrasiga ta'sir qilishini inobatga olsak, ekologik madaniyatga hamma ega bo'lishi kerakligini ko'rsatadi, u esa barcha madaniyatlar kabi yoshlikdan singdiriladi"¹², deb urg'u berib o'tadi olim.

"Inson ekologiyasining maqsadi esa jamiyatni tegishli axborot bilan ta'minlash, bu axborot insonning hayotiy muhitini va insoniyat jamiyatida kechadigan jarayonlarni optimallashtirishga zamin yaratadi"¹³. Inson ekologiyasining amaliy vazifasi esa mamlakat bo'ylab inson hayot kechirishi uchun sog'lom, ekologik toza, xavfsiz va ijtimoiy qulay muhitni yaratishdan iborat. Bu vazifani hal etish jarayonida aholining demografik holati va salomatligining yomonlashishi asosiy e'tiborni tortadi.

Ekologik madaniyat tushunchasining ilk kurtaklarini qadimgi yozma yodgorliklarda ham ko'rish mumkin, masalan, "Misr ehromlari" matnida, Vavilonning Akkad mifologiyasida, "Maxabxarata" va "Ramayana" hind epik dostonlarida (miloddan avvalgi VI-IV asrlar). Jumladan, Xeops piramidasida shunday so'zlar bitilgan: "Odamlar tabiat kuchlaridan foydalana olmagan va asl dunyoni bilmaganidan halok bo'ladi". G.S.Rozenbergning fikricha, birinchi ekologlar qadimgi yunon shoir va faylasuflari Gomer, Fales, Empedokl, Gippokrat, Demokrit, Platon, Aristotel, Teofrast va rimlik pragmatiklar Varron, Seneka, Pliniy (kattasi) va boshqalar bo'lgan"¹⁴.

Muammoning biz uchun muhim bo'lgan yana bir jihatini quyidagicha ifodalash mumkin: agar madaniyat umumiy holatda moddiy va ma'naviy qadriyatlar hamda ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydigan inson faoliyati usullarining yig'indisi bo'lsa, ekologik madaniyat - bu jamiyatni tabiat bilan uyg'unlikda rivojlanishining ta'minlanishidir. Agar, umuman, madaniyat inson tomonidan tabiatdan berilgan asosni yengib o'tish birligini anglatlsa, ekologik madaniyat ijtimoiy faoliyat va tabiat yaxlitligi qonunlarining muvofiqligini sharxlab o'tadi, xususan, insoniy faollik va uning hayotga moyillik kabi sifati tabiat muhitiga muvofiqligini anglatadi. "Ekologik madaniyat ekologik bilimlar, tabiat muvozanati uchun xavfsiz va xatto qulay bo'lgan

¹² Зиямухамедов Б. Мактаб ўқувчиларини экология ва экологик тарбияси. - Т: Ўқитувчи, 1998. – Б. 15

¹³ Глазачев С.Н., Игнатов С.Б., Игнатова В.А., Марченко А.А. Экологическая культурология // Педагогическая адаптация - М.: РИО МГГУ им. М. А. Шолохова, 2008. - С. 309.

¹⁴ Миркин Б.М., Наумова Л.Г. Краткий курс общей экологии. Часть I: Экология видов и популяций: Учебник. - Уфа: Изд-во БГПУ, 2011. - С. 9.

faoliyat texnologiyalari, me‘yor va qadriyatlar, xatti-harakat ko‘nikmalarini, hayolot va hissiyotlarni o‘z ichiga oladi va insonlar faolligini butun tizimiga aylanadi. Ekologik madaniyatning rivojlanish darajasi zamonaviy sharoitlarda jamiyat tizimining yetukligi va taraqqiyotning eng muhim ko‘rsatkichlaridir”¹⁵. Umuman olganda, “ekologik madaniyat” tushunchasi muhitning barqaror rivojlanish yoki koevolyutsiya kontekstida ko‘rilishi kerak. Sharq mutafakkirlari al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Nizomiy, Ulug‘bek, Navoiylarning ilmiy asarlarida ham ekologik yondashuvlarni uchratamiz.

O‘zbekistonda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda “ekologik madaniyat” tushunchasining ko‘p talqinlari berib o‘tilgan. Jumladan, “Ekologik madaniyat quyidagicha sharhlanadi - bu atrof-muhitni tabiatning tabiiy rivojlanish qonunlari asosida saqlash, bunda muhitga nisbatan insoniyat faoliyati o‘zgarishining yaqin va uzoq oqibatlari inobatga olinadi; “ekologik madaniyat - umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, u moddiy va ma‘naviy mehnat mahsulining yig‘indisida talqin qilingan; madaniyatning rivojlanishi kasbiy ekologik ta‘limning rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liq”¹⁶. Biroq bu ta‘rifda shaxs va jamiyatning tabiatga munosabati qanchalik ijobiy bo‘lishi mumkinligi unchalik ham tushunarli emas, ekologik madaniyatning o‘zi esa insonlarni atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini amaliyotsiz quruq gap ko‘rinishida taqdim qilinmoqda.

Respublikamiz ta‘lim tizimi o‘quv dasturlarida ekologik madaniyatni rivojlantirish muammolari bir qancha olimlar tomonidan jumladan, J.Xolmo‘minov, E.A.Turdiqulov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ekologik ta‘lim talabalarda ularning dunyoqarashini o‘stirish, kasbiy tayyorgarligini inobatga olib, maqsadlar qo‘yilgan edi. Ularning izlanishlarida ekologik bilimlarning ahamiyatiga urg‘u berilgan, politexnik va ekologik ta‘limning aloqadorlik muammosi bo‘yicha alohida aspektlar yoritilgan hamda energetik sektorga ega qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish sohasiga doir masalalar ko‘rilgan.

“Ekologik madaniyat - bu tirik mavjudotlarning atrof-muhit bilan aloqadorligini anglash, bilish, fikrlash, fahmlashda ishtirok etish qobiliyati va mas‘uliyati”¹⁷.

N.Sh.Bozorovning fikricha, “ekologik madaniyat - bu bilim, ong, idrok etish, savodxonlik, intellektual salohiyat va amaliy qo‘llash, ekologik samaradorlikning bosqichi, ongli va mas‘uliyatli yondashuvidir”¹⁸. U.N.Nishonovanning qarashlarida “ekologik madaniyat

15 Гирусов Э.В. Восхождение к экологической культуре: необходимость и сущность // Библиотечное дело. - СПб, 2010. - №3. - С.6-7.

¹⁶ <http://eco.uz/ru/biblioteka/poleznaya-literatura/83-ekologicheskij-tolkoviy-slovar>

17 Маликова А.Р Педагогика олий ўқув юрти талабаларида экологик маданиятни шакллантириш: Пед. ... фан.ном.дисс,-Т., 2010.-1106.

¹⁸Бозорова Н Талабаларда экологик маданиятни илмий-педагогик асослари(олий таълим муассасалари мисолида): Пед.фан.ном. ...дисс,автореф. - Т., 2006. - 556.

atrof-muhitni himoya qilish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ekologik xabardorlik va hissiy rivojlanish, faol hayot tarziga ta’lluqlidir”¹⁹.

Ekologik madaniyat (ekomadaniyat) inson, jamiyat va biosfera qidirgan koevolyutsiya. “Tadqiqotchi O.N.Yanskiy o‘zining ko‘p sonli ishlarida ekologik madaniyat o‘z mohiyatiga ko‘ra jamiyat va uning yashash muhiti munosabatlarining axloqiy asoslarini o‘z ichiga oladigan axloq va odobning bir qismi ekanligi haqida ta’kidlab o‘tadi”²⁰.

I.I.Mazur ekologik madaniyatni voqelik, uning tizimli tashkil qilinishi, ierarxik yaxlitligini ravshan ko‘rish madaniyati sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha harakat - bu bir vaqtning o‘zida to‘liq dunyoda dunyoqarashni shakllantirish yo‘lidir. “Ekologik madaniyat - yana bir yo‘nalish, madaniyat aspekti emas, balki madaniyatning yangi sifati, yaxlit dunyoni amaliy, intellektual va ma’naviy anglash asosida aks ettirishni nazarda tutadi”²¹.

S.N.Glazachev va S.B.Ignatov o‘z ishlarida “ekologik madaniyat tor ma’noda ekologik kompetentlik darajasini oshirish, bilimlar, ekomuvofiq hatti-harakatning tabiatni muhofaza qilish malaka va ko‘nikmalarini egallash haqida ishonch ekanligini bildirishadi. Keng ma’noda uning tuzilmasiga ekomarkazlashgan dunyoqarash, ekologik ong, ekologik tafakkur, gumanistik g‘oyalar, umuminsoniy qadriyatlar va ideallar, e’tiqod va tamoyillar, ilmiy va noilmiy bilimlar, ekologik asoslangan faoliyatning ko‘nikma va malakalari, ekologik va axloqiy imperativlarni anglash usullari, me’yor va talablari, ekologik axloq, fuqarolik va ekologik javobgarlik kabilar kiritilgan”²². Shuningdek, S.N.Glazachev S.S.Kashlev bilan hammualliflikda ekologik madaniyatni inson va tabiat orasidagi munosabatni uyg‘unlashtiruvchi faoliyatning o‘ziga xos ichki determinanti sifatida o‘rganadi. Bundan tashqari, ekologik madaniyat tushunchasining S.N.Glazachev tomonidan berilgan anchagina ta’rifi mavjud. Uning fikricha, “ekologik madaniyat tabiatni ma’naviy va moddiy o‘zlashtirish hamda uning yaxlitligini ta’minlash jarayonida insonning asl kuchini amalga oshirish va rivojlantirish, ekologik ong va tafakkurning birligi va mahsulidir”²³.

Yana bir mashhur olim I.I.Legostayevning fikricha, ekologik madaniyat - bu shaxsning integrativ sifati va muhim xususiyati bo‘lib, u atrof- muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishning nazariy va amaliy hozirligini aks ettiradi. “Ekologik va pedagogik faoliyatning maqsadi ekologik madaniyatning yuqori darajadagi rivoji hisoblanadi; uning predmeti

¹⁹Нишонова Н.Ў. Умумий ўрта таълим талабаларининг экологик маданиятини шакллантириш: Пед. ...фан.ном.дисс,автореф. - Т., 2001. - 286.

²⁰ Яницкий О.Н. Экологическая культура: очерки взаимодействия науки и практики.- М.: Наука, 2007. - С. 6

²¹ Мазур И.И., Козлова О.Н., Глазачев С.Н. Путь к экологической культуре. - М.: Горизонт, 2001.4-194 с.

²² Глазачев С.Н., Игнатов С.Б., Игнатова В.А., Марченко А.А.Экологическая культурология // Педагогическая адаптация - М.: РИО МГТУ им. М. А. Шолохова, 2008. - С. 309

²³ Глазачев С.Н. Экологическая культура учителя: Исследования и разработки экогуманитарной парадигмы: Монография. - М.: Современный писатель, 1998. - 432 с

talabalarga ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishdan iborat”²⁴. V.A.Sitarov esa, “ekologik madaniyatni jamiyat madaniyatining uzviy, ajralmas qismi deb o‘rganadi va uni ma’naviyat darajasi, axloq darajasi, insonlarning faoliyatiga ekologik tamoyillarni singdirish masalasidir deb, tavsiflaydi”²⁵. O.N.Butakovaning dissertatsiyasida ham ekologik madaniyat tushunchasiga izoh beriladi, unda “ekologik madaniyat ekologik tarbiya va ta’lim jarayoni natijasi, ekologik ong va tafakkur darajasi, atrofimizdagi tabiiy va ijtimoiy-tabiiy muhit bilan munosabatlarda xulqiy faoliyat mezonlari bilan birga o‘zligini anglash darajasini ham namoyon etadi”²⁶. V.A.Yasvinning ilmiy tadqiqot ishlarida ekologik madaniyatni insonlar o‘z amaliy faoliyatida ekologik bilim va ko‘nikmalaridan foydalana olish qobiliyati, deb hisoblaydi. Madaniyat yetarli darajada bo‘lmaganida insonlar zarur bilimlarga ega bo‘lishi mumkin, biroq bunda bilim o‘zlashtirilmagan bo‘ladi. “Insonning ekologik madaniyati uning ekologik ong va ekologik xulqini o‘z ichiga oladi va shu orqali insonning ekologik dunyoqarashini shakllantiradi”²⁷.

Tadqiqotchi A.N.Ilina o‘z tadqiqotida ekologik madaniyatni ekologik dunyoqarash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorligi g‘oyasini ta’kidlaydi va ular o‘rtasidagi quyidagi mutanosiblikni ko‘rsatib o‘tadi:

- “ekologik madaniyat bu to‘liq dunyoqarashning bir qismi va inson hamda o‘zi bilan shaxs tomonidan faol qabul qilingan, atrof-muhitga nisbatan umumiyroq bo‘lgan g‘oyalarning yig‘indisini taqdim qiladi;
- ekologik madaniyat - insonning tabiatga nisbatan munosabati, ekologik ongni namoyon bo‘lish shakli;
- ekologik madaniyat dunyoqarashga xos e’tiqodlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalari sohasida dunyoqarashga xos yo‘nalishning funksiyalarini amalga oshiradi”²⁸.

V.P.Gorlachevning fikricha, ekologik madaniyat shaxs dunyoqarashining yaxlit tizimiga uning bir qismi sifatida kiradi. Bu ma’noda ekologik madaniyat dunyoqarash kategoriyasi sifatida ko‘rib chiqiladi; ekologik madaniyat zamonaviy urbanizatsiya muhitida hayotning ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantirishning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘ladi. Muallif shuni xam ta’kidlaydiki, inson dunyoqarashining shakllanish omillarining yaxlit majmuasi bilan uzviy

²⁴ Гельман З.Е. Интеграция общего среднего образования на базе идей истории науки и искусства // Вестник высш. школы. - 1991. - № 12. - С. 39

²⁵ Ситаров В.А., Пустовойтов В.В. Социальная экология. - М.: Академия, 2000. - С. 34

²⁶ Бутакова О.Н. Формирование экологической культуры школьников в разделе «Человек и его здоровье» средствами спецкурса «Экология человека»: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2007. - С. 65

²⁷ Ясвин В.А. Формирование экологической культуры школьников в разделе «Человек и его здоровье» средствами спецкурса «Экология человека»: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 2007. - С. 78

²⁸ Ильина А.Н. Теоретические проблемы воспитания у старшеклассников экологической культуры как части их мировоззрения: Дисс. ... канд. пед. наук. - М., 1998. - С. 12.

bog‘liqligi bois, oilaning ta’siri, ijtimoiy atrof-muhit ta’siridan boshlab, to ommaviy axborot vositalarigacha ta’sir etadi. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida muhim rolni maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan ekologik ta’limni tashkil etish egallaydi.

Shuningdek, A.T.Zverevaning fikrini ham keltirib o‘tsak. U “ekologik madaniyat inson (jamiyat) va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining yangicha tushunilishiga tayanadigan ekologik dunyoqarashga asoslangan”²⁹, deb hisoblaydi va tabiatdan o‘zini-o‘zi tiklash mexanizmlarini buzmasdan u qancha bera olishiga qarab olish, bioxilma-xillik va hayot uchun yaroqli shart-sharoitlarni saqlashga undaydi.

Tadqiqotchi V.N.Vasileva ekologik madaniyatni ekologik tafakkur bilan bog‘laydi. Bunda u “rivojlangan ekologik tafakkur ekologik madaniyat, fuqarolik va vatanpravarlikni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi”³⁰, deb hisoblaydi. Respublikamiz olimi E.A.Turdiqulov ekologik tafakkurni rivojlantirish vazifasini ekologik bilimlarni shakllantirish bilan bir qatorda qo‘yishni taklif qilgan. U ekologik dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish faqatgina ilmiy dalil va qonunlarni o‘zlashtirishga borib taqalmasligiga urg‘u berib o‘tdi. Uning fikricha, ekologik dunyoqarash talabalarda real hayotga shaxsiy ichki munosabatni ishlab chiqish bilan bog‘liq.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekologik madaniyat muammosi bo‘yicha dissertatsion tadqiqotlar olib borilgan. Ular quyidagi yo‘nalishlarda bajarilgan:

- kasb-hunar kollejlari talabalarining ekologik madaniyatini shakllantirish (geografiya fanini o‘qitish misolida) (F.U.Jumanova);
- ekologik noqulay mintaqalarda ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan o‘qitish texnologiyalari (T.T.Saparov);
- uzluksiz ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning fanlararo ekologik tarbiyasini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti (umumiy o‘rta ta’lim va “Pedagogik kollejlarda boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi misolida) (N.D.Isakulova);
- yoshlar sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda yaxlitlik va uzluksizlik (O.R.Jamolidinova).

Tadqiqotimizning tahlillari tabiiy o‘zaro munosabatlarga ta’sir qiladigan har bir amaliy harakat majmuaviy tarzda uzoq muddatga ilmiy-nazariy asoslanish bilan bashoratlanishi kerak.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim pedagogik muammolaridan

29Зверев А.Т. Экологическое мировоззрение - основа устойчивого развития // XVI Международная конференция «Экологическое образование в интересах устойчивого развития» (Россия, Москва, 25-26 июня 2010): тезисы докладов и презентаций XVI Международной конференции «Экологическое образование в интересах устойчивого развития». - СПб, 2010. - С. 74.

30 Васильева В.Н. Формирование экологического мышления в процессе образования //Инновации и образование. Сборник материалов конференции. Серия - Symposium, выпуск 29. - СПб: Санкт-Петербургское философское общество, 2003. - С. 281.

biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ekologik ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda talabalarning ekologik faoliyatini rag'batlantirish zarur. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Demokratik isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. - Toshkent: «O‘zbekistan», 2011. -T.
2. Ziyomuxammedov B. Maktab o‘quvchilarining ekologik tarbiyasi. - T: O‘qituvchi, 1998.
3. Глазачев С.Н., Игнатов С.Б., Игнатова В.А., Марченко А.А. Экологическая культурология // Педагогическая адаптация - М.: РИО МГГУ им. М. А. Шолохова, 2008.
4. Миркин Б.М., Наумова Л.Г. Краткий курс общей экологии. Часть I: Экология видов и популяций: Учебник. - Уфа: Изд-во БГПУ, 2011.
5. Гирусов Э.В. Восхождение к экологической культуре: необходимость и сущность // Библиотечное дело. - СПб, 2010. - №3. - С.6-7.
6. <http://eco.uz/ru/biblioteka/poleznaya-literatura/83-ekologicheskiytolkoviy> -slovar
7. Маликова А.Р Педагогика олий ўқув юрти талабаларида экологик маданиятни шакллантириш: Пед. ... фан.ном.дисс,-Т., 2010.-110б.
8. Бозорова Н Талабаларда экологик маданиятни илмий-педагогик асослари(олий таълим муассасалари мисолида): Пед.фан.ном. ...дисс,автореф. - Т., 2006. - 55б.
9. Azamovna, Ismailova Gulbakhor. "Globalization in the process the student is the national values of the youth in the spirit bring up necessity." JournalNX 8.12 (2022): 512-516.
10. Azamovna, Ismoilova Gulbaxor. "Development of ecological culture on the basis of modern pedagogical technologies." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.04 (2022): 165-170.
11. Исмоилова, Гулбахор Азамовна. "РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ КАК ОБЩЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2020.
12. Исмоилова, Гулбахор Азамовна. "ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ." Современное образование (Узбекистан) 11 (96) (2020): 45-51.С.Н. Путь к экологической культуре. - М.: Горизонт, 2001.4-194 с.